

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


Doimiy aholi soni.

Xorazm viloyati doimiy aholisi soni 2019 yil 1 iyul holatiga 1846,4 ming kishini tashkil etib, 2019 yilning yanvar-iyun oylarida 10,6 ming kishiga yoki 1,7 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 613,3 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 33,2 %), qishloq aholisi soni 1233,1 ming kishini (66,8 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2019 yil yanvar-iyun

- Aholi soni **10,6 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **15,3 ming nafarni** tashkil etdi.
- **3,8 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **7,7 mingta nikoh** va **0,5 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Xorazm viloyat aholisining umumiy o'sishi (2019 yil yanvar-iyun oylarida)



Demografik holat


Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2019 yil 1 iyul holatiga, ming kishi)

Shahar va tumanlar	<i>Doimiy aholi soni , ming kishi</i>			<i>Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati, %</i>		
	<i>Jami</i>	<i>shu jumladan:</i>		<i>Jami</i>	<i>shu jumladan:</i>	
		<i>shahar</i>	<i>qishloq</i>		<i>shahar</i>	<i>qishloq</i>


Viloyat bo'yicha jami	1846,4	613,3	1233,1	101,7	101,5	101,8
Urganch shahar	142,5	142,5	-	101,1	101,1	-
Xiva shahar	91,1	91,1	-	101,6	101,6	-
tumanlar:						
Bog'ot	161,9	28,3	133,6	101,8	101,7	101,8
Gurlan	146,3	62,3	83,9	101,5	101,4	101,6
Qo'shko'pir	169,5	43,5	126,0	101,9	101,5	102,0
Urganch	195,4	26,3	169,2	102,0	102,1	102,0
Xazorasp	245,1	53,0	192,1	101,8	101,3	101,9
Xonqa	183,7	63,1	120,5	101,6	101,6	101,6
Xiva	143,1	16,6	126,5	101,8	101,4	101,9
Shovot	167,3	43,4	123,9	101,8	101,8	101,8
Yangiariq	114,4	27,2	87,2	101,7	101,9	101,6
Yangibozor	86,1	15,9	70,2	101,7	101,7	101,6

Tumanlar kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 iyul holatiga eng ko'p doimiy aholi sonining o'sish surati Urganch tumanida 102,0 %, Qo'shko'pir tumanida 101,9 % , Bog'ot tumanida 101,8 % aksincha eng kam aholi soni Urganch shahrida 101,1 % va Gurlan tumanida 101,5 % tashkil etdi.

Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2019 yil 1 iyul holatiga, ming kishi)



Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 iyul holatiga eng ko'p aholi soni Xazorasp tumanida 245,1 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 13,3 %ni) va Urganch tumanida 195,4 ming kishini (10,6 %), aksincha eng kam aholi soni Yangibozor tumanida 86,1 ming kishi (4,7 %) va Xiva shahri 91,1 ming kishini (4,9 %) tashkil etdi.



Demografik holat

Tug'ilish. 2019 yilning yanvar-iyun oylarida 15,3 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 16,8 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,6 promillega ko'paygan (2018 yilning yanvar-iyun oylarida 16,2 promille bo'lgan).



Qiz bolalar:
7,3 ming nafar



O'g'il bolalar:
8,0 ming nafar

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq


Shahar va tumanlar bo'yicha tug'ilganlar soni (kishi, yanvar-iyun)

Shahar va tumanlar	2018 y	2019 y	o'sish, %
Viloyat bo'yicha jami	14571	15321	105,1
Urganch shahar	1204	1365	113,4
Xiva shahar	638	595	93,3
tumanlar:			
Bog'ot	1336	1343	100,5
Gurlan	1184	1317	111,2
Qo'shko'pir	1148	1245	108,4
Urganch	1607	1702	105,9
Xazorasp	2142	2350	109,7
Xonqa	1648	1543	93,6
Xiva	841	878	104,4
Shovot	1277	1311	102,7
Yangiariq	793	857	108,1
Yangibozor	753	815	108,2

Demografik holat

Tug'ilish koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan Urganch shahrida (17,3 promilledan 19,4 promillega), Gurlan tumanida (16,6 promilledan 18,2 promillega), Xazorasp tumanida (18,0 promilledan 19,4 promillega), Yangibozor (18,0 promilledan 19,1 promillega) va Yangiariq tumanida (14,3 promilledan 15,2 promillega) tumanlarida ko'payish kuzatildi.

Tumanlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-iyun)



Viloyat bo'yicha 2019 yil yanvar-iyun oylarida eng ko'p tug'ilish Xazorasp va Urganch tumanlarida qayd etilganligi kuzatildi.

Demografik holat

Vafot etganlar. 2019 yilning yanvar-iyun oylarida 3,8 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,1 promilleni tashkil etdi.

Vafot etganlar



Erkaklar:
2,0 ming

Ayollar:
1,8 ming


**Shahar va tumanlar bo'yicha o'lganlar soni
(kishi, yanvar-iyun)**

Shahar va tumanlar	2018 y	2019 y	o'sish, %
Viloyat bo'yicha jami	3709	3769	101,6
Urganch shahar	393	441	112,2
Xiva shahar	222	185	83,3
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	277	266	96,0
Gurlan	295	328	111,2
Qo'shqo'pir	328	326	99,4
Urganch	402	383	95,3
Xazorasp	505	502	99,4
Xonqa	364	384	105,5
Xiva	218	233	106,9
Shovot	307	349	113,7
Yangiariq	225	188	83,6
Yangibozor	173	184	106,4

Demografik holat

O'lim koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada kamayishi Xiva shahar (5,0 promilledan 4,1 promillega) Urganch tuman (4,2 promilledan 4,0 promillega), Bog'ot (3,5 promilledan 3,3 promillega) Yangiariq (4,0 promilledan 3,3 promillega) va Xazorasp (4,2 promilledan 4,1 promillega) tumanlarida kuzatildi.

**Tumanlar kesimida vafot etganlar soni va koeffisienti
(2019 yil, yanvar-iyun)**




Viloyat bo'yicha 2019 yil yanvar-iyun oylarida eng ko'p vafot etganlar Xazorasp va Xonqa tumanlarida qayd etilganligi kuzatildi.

Demografik holat

2019 yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 60,1 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,4 %i o'simtalardan, 4,8 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,7 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 3,3 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 15,7 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 223 nafarni tashkil etib, ularning 66,4 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 10,3 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 18,4 %i tug'ma anomaliyalardan, 2,2 % iyuqumli va parazitlar kasalliklardan va 2,7 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



2019 yil yanvar-iyun

Tabiiy o'sish. 2019 yilning yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy o'sishi 11,5 ming kishini tashkil etib, 2018 yil mos davriga nisbatan 0,6 ming kishiga (2018 yilning yanvar-iyun oylarida 10,9 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:
11,5 ming kishi

Demografik holat

Nikoh. 2019 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 7,7 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koefitsiyenti 8,4 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Gurlan tumanida (105,2%), Urganch shaharda (101,1%) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Nikohdan ajralishlar. 2019 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,5 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan ajralish koefitsiyenti 0,6 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan kamayish sur'atlari Yangibozor (62,5%), Urganch shahar (98,9%), Shovot tuman (97,5 %)ga to'g'ri kelmoqda.




Shahar va tumanlar bo'yicha nikohlar va ajrimlar soni (birlik, yanvar-iyun)



Shahar va tumanlar	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2018 yil	2019 yil	o'sish, %	2018 yil	2019 yil	o'sish, %
Viloyat bo'yicha jami	8041	7675	95,4	484	521	107,6
Urganch shahar	539	545	101,1	87	86	98,9
Xiva shahar	345	339	98,3	21	23	109,5
tumanlar:						
Bog'ot	668	637	95,4	37	39	105,4
Gurlan	716	753	105,2	41	43	104,9
Qo'shko'pir	835	824	98,7	32	44	137,5
Urganch	708	682	96,3	75	77	102,7
Xazorasp	1015	1003	98,8	57	70	122,8
Xonqa	776	710	91,5	39	47	120,5
Xiva	645	588	91,2	8	11	137,5
Shovot	776	715	92,1	40	39	97,5
Yangiariq	576	502	87,2	23	27	117,4
Yangibozor	442	377	85,3	24	15	62,5

Tumanlar bo'yicha tuzilgan nikohlar va koeffisienti (2019 yil, yanvar-iyun)



Nikoh. 2019 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan tuzilgan nikohlar soni Xazorasp tumanida 1,0 ming kishi, Qo'shko'pir tumanida 0,8 ming kishi, Gurlan tumanida 0,8 ming kishi, Urganch tumanida 0,7 ming kishi, Xonqa tumanida 0,7 ming kishi, Shovot tumanida 0,7 ming kishi, Bog'ot tumanida 0,6 ming kishi, Xiva tumanida 0,6 ming kishi, Urganch shahrida 0,5 ming kishi, Yangiariq tumanida 0,5 ming kishi, Yangibozor tumanida 0,4 ming.

Tumanlar bo'yicha nikohdan ajralishlar soni va koeffisienti (2019 yil, yanvar-iyun)



Nikohdan ajralishlar. 2019 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan nikohdan ajralishlar soni Urganch shaharda 86 kishi, Urganch tumanida 77 kishi, Xazorap tumanida 70 kishi, Xonqa 47 kishi, Qo'shko'pir tumanida 44 kishi, Gurlan tumanida 43 kishi, Bog'ot tumanida 39 kishi, Xiva tumanida 11 kishini tashkil qildi.

Demografik holat

Migratsiya. 2019 yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 3,0 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 3,9 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 0,9 ming kishi bo'lib, 2018 yilning mos davrida minus 0,6 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (kishi)

Shahar va tumanlar	2018 yil yanvar-iyun			2019 yil yanvar-iyun		
	Ko'chib kelganlar	Ko'chib ketganlar	Migratsiya saldosini	Ko'chib kelganlar	Ko'chib ketganlar	Migratsiya saldosini
Viloyat bo'yicha jami	3428	3991	-563	3041	3881	-840
Urganch shahar	1025	1073	-48	920	1040	-120
Xiva shahar	89	99	-10	82	89	-7
tumanlar:						
Bog'ot	126	199	-73	136	141	-5
Gurlan	105	198	-93	69	259	-190
Qo'shko'pir	175	306	-131	203	262	-59
Urganch	924	716	208	857	648	209
Xazorasp	143	359	-216	109	320	-211
Xonqa	139	229	-90	153	321	-168
Xiva	171	210	-39	105	204	-99
Shovot	165	240	-75	151	242	-91
Yangiariq	266	192	74	225	235	-10
Yangibozor	100	170	-70	31	120	-89

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Xazorasp tumanida (minus 0,2 ming kishi), Gurlan tumanida (minus 0,2 ming kishi), Xonqa tumanida (minus 0,2 ming kishi) kuzatildi.

Demografik holat

Aholi zichligi. 2019 yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha aholi zichligi 1kv.km ga 305,2 kishiga to'g'ri keladi, shahar va tumanlar kesimida zich joylashgan hududlar Urganch shahar 4750,0 kishi, Xiva shahar 3036,7 kishini tashkil qilsa va aksincha Xazorasp tumani 119,0 kishi, Yangibozor tumani 253,2 kishiga to'g'ri keladi.

Aholi zichligi (2019 yil, yanvar-iyun)

Shahar va tumanlar	Doimiy aholi soni	Er maydoni ,ming kv.km	Aholi zichligi,kishi
Viloyat bo'yicha jami	1846,4	6,05	305,2
Urganch shahar	142,5	0,03	4750,0
Xiva shahar	91,1	0,03	3036,7
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	161,9	0,44	368,0
Gurlan	146,3	0,44	332,5
Qo'shko'pir	169,5	0,54	313,9
Urganch	195,4	0,45	434,2
Xazorasp	245,1	2,06	119,0
Xonqa	183,7	0,43	427,2
Xiva	143,1	0,43	332,8
Shovot	167,3	0,46	363,7
Yangiariq	114,4	0,40	286,0
Yangibozor	86,1	0,34	253,2